



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2022-yil 20 - yanvar

2/24-4/1-154-son

Oliy ta’lim muassasalari
rektorlari va filiallar
direktorlariga

TIVning joriy yil 11-yanvardagi 10/735-sonli xatiga muvofiq

Turkiya Hukumati tomonidan 2022-yil uchun “Turkiya grantlari” Xalqaro talabalar va ilmiy tadqiqotchilarga Turkiya oliy ta’lim muassasalarida grant asosida tahsil olish va ilmiy tadqiqot olib borish imkoniyatini beruvchi grantlar dasturi e’lon qilingan.

Ushbu grantlar dasturi bakalavriat, magistratura, doktorantura ta’lim bosqichlari va ilmiy tadqiqot olib borish uchun mo’ljallangan bo’lib, ular universitetga joylashtirish, 1 yillik turk tili kursi, tibbiy sug’urta, bir martalik aviachipta, stipendiya, o’qish uchun to’lov, madaniy va ilmiy dasturlar, yotoqxona bilan ta’minlash kabilarni o’z ichiga oladi.

Stipendiya miqdori bakalavr talabalari uchun har oy 800 turk lirasi (TL), magistratura talabalari uchun 1100 TL, doktorantlarga 1600 TL, ilmiy tadqiqotchilar uchun 3000 TL, davlat xodimlari va ilmiy xodimlar uchun “Turkcha muloqot dasturi (KATIP)” 2000 TL ni tashkil qiladi.

Ilmiy tadqiqotchilar uchun grantlar faqatgina oylik stipendiya bilan cheklangan. “Turkcha muloqot dasturi (KATIP)” granti oylik stipendiya, yotoqxona, aviachipta, madaniy va ijtimoiy tadbirlarni o’z ichiga oladi.

“Turkiya grantlari” dasturiga onlayn tarzda quyidagi veb-sayt orqali ro’yxatdan o’tish mumkin: www.turkiyeburslari.gov.tr

Mazkur tanlovning yosh jixatdan cheklovlari veb-saytda keltirilgan.

Xujjat topshirish muddatlari “Turkiya grantlari” dasturining veb-saytidagi “Application calendar” sahifasida ma’lum qilingan.

Shuningdek, chet davlatlar tomonidan ajratilgan grant va stipendiyalarning hisobotini yuritish hamda bu borada Vazirlar Mahkamasiga hisobot tayyorlash maqsadida Turkiya tomonidan grant va stipendiya sohiblariga ajratilgan xarajatlar (aviachipta, o'qish uchun xarajatlar, stipendiyalar va h.k.) doimiy ravishda qayd etilishi zarur.

Ilova: b.

Vazirning
birinchi o'rinbosari



K. Karimov